

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MATEMATIK FIKRLASH  
FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMI**

**Kurbanova Raximajon Mamatovna**

*Xorazm viloyati Xiva tumani 14-sonli umumiy o'rta ta'lism maktabi*

*boshlang'ich ta'lism fani o'qituvchisi*

**Babayozova Nargiza Palvonovna**

*Xorazm viloyati Xiva tumani 14-sonli umumiy o'rta ta'lism maktabi*

*boshlang'ich ta'lism fani o'qituvchisi*

**Otajonova Donoxon Komiljonovna**

*Xorazm viloyati Xiva tumani 26-sonli umumiy o'rta ta'lism maktabi*

*boshlang'ich ta'lism fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik fikrlash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishning metodik tizimi, pedagogikada sistemali yondashuvni ishlab chiqish tarixi haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit So'zlar:** struktura, ierarxiya, metodika, integratsiya, differensiatsiya.

**Аннотация:** В статье представлены сведения о методической системе формирования и развития деятельности математического мышления у учащихся начальной школы, истории развития системного подхода в педагогике.

**Ключевые Слова:** структура, иерархия, методология, интеграция, дифференциация.

**Abstract:** This article provides information about the methodical system of formation and development of mathematical thinking activity in elementary school students, the history of the development of a systematic approach in pedagogy.

**Key words:** structure, hierarchy, methodology, integration, differentiation.

## **KIRISH**

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lism mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lism olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda - bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ta'lism o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lism jarayonida



o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lif va tarbiya masalalari hal etiladi.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga o'qitishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lif jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmli yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko'p so'z biladi?" kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin jarayonida bolalarning so'zlarni eslab qolishi, to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borish zarur.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Metodik masalalarni yechishda ko'pgina hollarda olingen natijalarni bir muncha umumlashtirilgan tarzda, ya'ni aniqlangan xossalarni yoki xarakteristikalarini sistemali tarzda aks ettiradigan qilib taqdim qilishga zarurat tug'ilib qoladi. Sistema (yunoncha —sistema — qismlardan tashkil topgan, qo'shilgan) — bir butunlik sifatida tashkil topgan obyektni ifodalovchi tushuncha. Sistema tushunchasi —element, —aloqadorlik, —bir butunlik, —yaxlitlik, —birlik, —struktura, —ierarxiya, —elementlar o'rtasidagi aloqadorlik qonuniyatları va shu kabi terminlar (tushunchalar) bilan bog'liq holda ifodalanadi.

Pedagogikada sistemali yondashuvni ishlab chiqish va amalga oshirishga Y.K.Babanskiy, A.G.Kuznetsova, N.V.Kuzmina, S.K.Nikulin, P.I.Pidkasistiy, V.A.Slastyonin, A.V.Tutolmin va boshqalarning izlanishlari bag'ishlangan.

O'qitishning metodik sistemasi belgilariga quyidagilar kiradi:

1) asosiy maqsadga erishishga imkon yaratuvchi tarkibiy qismlarining to'liqligi;

2) tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga tobelligi;

3) tarkibiy qismlarni birlashtirish uchun zarur bo'lgan yetakchi g'oyanining mavjudligi;

4) sistemaning tarkibiy qismlarida umumiylar xossalarning yuzaga kelishi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning metodik sistemasi bir qator talablarga javob berishi lozim.

Birinchidan, u diagnostik bo'lishi, ya'ni maqsadlarning natijalarga mos kelishini belgilashi lozim. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarini matematikaga o'qitish jarayonida asosiy maqsadga erishilishi zarur, unda belgilanganki, yuqori sinf o'quvchilarining bilim, malaka va ko'nikmalari bitiruvchilarni maktabni tamomlaganlaridan keyingi o'qitishga tayyorlashni ta'minlovchi me'yoriy hujjalarga (dasturga) mos kelishi zarur.

### **NATIJA**

Ikkinchidan, sistema matematika o'qituvchisining malakasi va ish tajribasiga bog'liq bo'limgan holda bir xil darajada foydalaniladigan bo'lishi lozim. Uchinchidan, sistema egiluvchan, ya'ni o'zgarishlarga, yangilanishlarga moslashishi, turli sharoitlarda ishlatilishi, yangi metodik amallar bilan to'ldirilish imkoniga ega bo'lishi lozim.



Matematikaga o'qitish sistemasini loyihalashtirish va amalga oshirish asosiga, matematika bo'yicha metodik ishlarda o'z aksini topgan: ilmiylik, asoslilik, birlashish (integratsiya), ajratish (differensiatsiya), insoniylik (gumanizatsiya) va insonparvarlik (gumanitarizatsiya), o'rın almashinuvchanlik, qulaylik, uzlusizlik kabi umumdidaktik va umummetodik tamoyillardan tashqari, ikkita guruhga birlashtirilgan tamoyillar olingan: a) umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida matematika o'qitishning metodik sistemasini yaratish va amalga oshirishning umumiyligi tamoyillari; b) umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida matematikaviy yo'naliш tarkibini tanlash tamoyillari.

### XULOSA

Matematik bilim va ko'nikmalar amalda barcha kasblarda zarur. Avvalo, albatta tabiiy fanlar, texnika va iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lganlarida. Matematika tabiatni o'rganish va texnika tili bo'ladi, shuning uchun ham tabiatni o'rganuvchi va muhandisning kasbi bu fanga asoslangan ko'pgina kasbiy ma'lumotlarni jiddiy egallashni talab qiladi. Hozirgi vaqtida matematik bilimlarni qo'llash shifokorga, lингвистга, tarixchiga, biologga va bu ro'yxatni to'xtatish mushkul, zarurligi gumon qoldirmaydi. Bizning davrimizda matematik ta'lim kasbiy faoliyat uchun shunchalik muhim. Demak, matematika va matematik ta'lim yuqori sinf o'quvchilarini bo'lg'usi kasbiga tayyorlashda zarur.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. – T.:O'qituvchi, 1980.66-bet
2. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.:Sharq, 2000. 110-bet
3. Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O'qituvchi, 1995. 78-bet